

ICHAN QAL'ADAGI ME'MORIY OBIDALAR

*Sharifov Sherali Alisher o'g'li**Xorazm IIV akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ichan qal'ada mavjud tarixiy obidalar haqida, ularning hozirgi kundagi holati tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются исторические памятники замка Ичан и их современное состояние.

Annotation: This article analyzes the historical monuments in Ichan Castle and their current state.

Kalit so'zlar: Madrasa, minora, masjid, xonaqoh, Olloqulixon, ta'mirlash, O'rta Osiyo, koshin, naqshlar, peshtoq.

Ключевые слова: медресе, минарет, мечеть, дом, Оллокули-хан, ремонт, Средняя Азия, изразцы, узоры, пешток.

Key words: Madrasa, minaret, mosque, house, Olloquli Khan, repair, Central Asia, tiles, patterns, peshtoq.

¹Ichan qal'a — O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal'a (Shahriston) qismi. Ichan qal'a shaharning Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal'a)dan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga 4 darvoza (Bog'cha dar-voza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza)dan kirilgan. Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalar: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal'ada. Undagi me'moriy yodgorliklarning yaratilish tarixi asosan 4 davrga taalluqli: Birinchisi Xorazmning qad. davridan to mo'g'ullar istilosi davriga qadar, bu davrdan Ko'hna arkning g'arbiy devori, qal'a devorining shim.sharqiy burchagidagi qad. davrga mansub burj va qal'a devori qoldiqlari saqlanib qolgan. Ikkinchisi Xorazmning 1220 yildagi mo'g'ullar istilosidan keyin tiklanish davri. Bu davrda Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa mahobatli binolar qurilgan. Uchinchi davri 16—17-asrlarga to'g'ri keladi. Shu paytda (Abulg'ozixon va Asfandiyorxon hukmronlik davri) Ichan qal'ada Anushaxon hammomi (1657), peshayvonli Oq masjid (1675), Xo'jamberdibek madrasasi (1688) kabilar bunyod etildi, Ko'hna ark istehkomlari mustahkamlandi, ko'rinishxona (xonning qabulxonasi) qurildi (1686—88). Buxoro bilan Eron o'rtasida Xiva xonligi uchun boshlangan urush natijasida (18-asrning 1-yarmi) Ichan qal'a va umuman Xiva sh. qattiq shikastlandi (Xiva bir qancha vaqt Eronga tobe viloyat bo'lib turdi. To'rtinchi davri 18—20-asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda O'rta Osiyo mahalliy

¹ Бекмуродов М., Рашидов М. Музейшунослик. – Тошкент, 2006.

me'morligi an'analari asosida masjid, madrasa, tim va toqilar qurildi. Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo'l o'tkazildi. 18-asr oxirida Juma masjid qayta qurildi va uning yonida baland minora qad ko'tardi.

Ichan qal'aning haroba devorlari tiklandi, bir qancha imoratlar ta'mir qilindi. 1840 yillarda ikki qavatli Kutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqilar qurildi. Muhammad Rahimxon (1806—25), Olloqulixon (1825—42), Muhammad Aminxon (1845—55) hukmronligi davrida Ichan qal'ada qurilish avj oldi. Muhtasham saroy, Madrasa, maqbaralar barpo etildi: Ko'hna arksat saroy qurilishi tugallandi. Yangi va katta Tosh hovli saroyi qurildi. Polvon darvozaga yaqin qo'rg'on devorining bir qismi buzilib, o'rniga Olloqulixon karvon saroyi, madrasasi va timi qurildi, xalq ijodining ajoyib namunasi Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko'tardi. Arab Muhammadxon va Musa Tura madrasalari ham shu davrda yaratildi. Muhammad Aminxon Ichan qal'aning g'arbiy qismiga — Ko'hna ark yoniga Kalpsh minor nomi bilan mashhur bo'lgan minora qurdirdi. Bu minora garchi bitkazilmay qolgan bo'lsa, Ichan qal'a mujassamotida katta o'rin tutadi.

² Bugungi kunda Ko'hna Xiva shahrini bu me'moriy yodgorlik obidasiz tasavvur etish qiyin. Kalta minor shahar ramziy belgisi sifatida tan olingan. Uning o'lchami va noyob bezaklari har bir shaxsni hayratga solmasdan qo'ymaydi. Minora poydevori 15 metr chuqurlikda, uning diametr asosi 14,5 metrni, balandligi 29 metrni tashkil topadi. Minora hozirgi paytda kesik konus shaklida bo'lib hozirni o'zida ham haybatli ko'rinishga ega. Dinamik qisqarishiga qarab xulosa qilinadigan bo'lsa, bitganidan so'ng uning balandligi 100 metrga yaqin bo'lib O'rta Osiyoda eng katta va baland minora bo'lishi mumkin edi. Minoraga tushgan insolyatsiya (quyosh nurlarini tushushi va sinishi)ga qaraydigan bo'lsak minoradagi koshinlarning rangi o'zgarmaydi. Chunki quyosh nuri har qanday jismni rangini o'zgartiradi, ya'ni oqartiradi yoki ochiq tusga kirgizadi. Bu holat minorada sezilmaydi. Mana qancha vaqt o'tgan bo'lsa ham xuddi yangi qurilganday saqlanib turibdi. Minorada asosan geometrik naqshlar (gireh) ko'p qo'llanilgan minoraga ikkinchi qavatdan ko'tarilish mumkin, ya'ni minoraga yog'och zinapoya orqali chiqiladi. Minora 1853 yilda Muhammad Aminxon tomonidan qurila boshlangan va 1855 yil Shimoliy Eronga yurish paytida xonning o'ldirilishi va Abdullaxonning taxtga o'tirishi bilan qurilish ishlari to'xtab qolgan. Lekin uning balandligi yana 70 metrga qad rostdashi kerak edi. Ba'zi bir manbalarda 110 metrga yetkazilishi qayd etilgan.

Ushbu madrasa va minora XX asr boshida Vaziri Akbar Islom xo'ja tomonidan qurilgan. Madrasa 42 ta hujradan iborat bo'lib, unda 100 ta talaba o'qigan. Uning old tomoni ikki qavatli bo'lib, baland peshtoqi madrasani hashamatli qilib ko'rsatib

² . Орифжонова Г.Р. Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишнинг тарихий-маданий жиҳатлари (Ўзбекистон музейлари коллекциялари мисолида). Монография. – Тошкент: «Lesson-press» нашриёти, 2021.

turibdi. Islom Xo‘ja madrasa vaqfi uchun o‘z mulkidan 14451 tanob (5780 gektar) yer ajratgan. Madrasa kirish eshigining ustiga marmar mahkamlanib, unga madrasaning qurilish tarixi bitilgan. Madrasa koshinlarini tayyorlagan usta o‘z nomini kirish eshigining chap tomonidagi koshin plitkalaridan bittasiga yozib qoldirgan. “Esh Muhammad ibn Xudoy Berdi 1328”. (1910 yil).

³ Olloqulixon madrasasi-ushbu 99 hujradan iborat to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli madrasa ikki qavatli bo‘lib, peshtog‘i g‘arb tomondagi Qutlug‘ Murod Inoq madrasasiga «qo‘sh» qilib qurilgan. Bosh tarzini miyon-saroy, masjid va darsxona hamda 2 qavatli hujralar egallagan. Eshikdagi yozuvda binoning qurilgan sanasi saqlangan. Hovli tomoni o‘ziga xos, undagi 2 qavatli qator hujralar Polvon darvozaning kichik gumbazlari ustiga va qisman Tim gumbazlari chekkasiga joylashgan. Masjid va darsxona tuzilishi bir xil. Usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Devorlaridagi chuqur ravoqlar hisobiga xona keng ko‘rinadi. Madrasa g‘arbida joylashgan ayvondagi yozgi masjidning mehrobi ganchli muqarnasdan «iroqi» uslubida bezatilgan. Nurullaboy saroyining qurilishi 1904-yilda boshlanib, 1910-yilda Muhammad Rahimxon II vafotidan so‘ng yangi xon Asfandiyor davrida davom ettirildi. Qurilishga xivalik hunarmand va rassomlardan tashqari Rossiya va Germaniyadan ham mutaxassislar jalb etilgan bo‘lib, ular obyekt dizayniga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Qurilish materiallarining bir qismi, jumladan, asosan Sankt-Peterburgda ishlab chiqarilgan plitka va keramika ham import qilingan[3]. Otasi vafotidan keyin, 1912-yilda Asfandiyorxon chet ellik mehmonlarni qabul qilish uchun majmua ichida alohida bino qurdirdi.

Saroy 1912-yilda Muhammad Rahimxon vafotidan ikki yil o‘tib qurib bitkazildi. Keyinchalik bu binodan xon va uning oilasi qarorgoh sifatida 1920-yilda Xorazm Xalq Respublikasi tashkil etilgunga qadar foydalangan. Yaqin o‘tmishda asosiy e‘tibor obyektни saqlashga qaratildi, rekonstruksiya qilish ishlari 2017-yilda yakunlandi. Nurullaboy saroyi YuNESKOning Butunjahon merosi Ichan qal‘a ro‘yxatidan tashqarida joylashganligi sababli shaharning eng mashhur diqqatga sazovor joylaridan biri bo‘lmasa-da, Xivaga ko‘plab sayyohlik tashriflarining bir qismidir.

Xulosa

Xiva o‘zining tarixiy memoriy obidalari bilan mashhur shubilan duyoningko‘plab davlatlarida turistlar tomosha qilish uchun kelishadi. Bu binolarni qurishda va bezak berishda san‘at ustalari ishlaganlar. Asfandiyorxon (1910—18) Rossiyadagi o‘zgarishlar sabab Xiva xonligida zulmni kuchaytirgan. Shu bilan birga Rossiya hukumati talabi bilan 1910-1913 yillarda vazir Islomxo‘ja boshchiligida islohotlar o‘tkazishga harakat qilgan. Me‘moriy ansamblining yaxlitligi jihatidan shahar O‘rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Safo Bog‘bekov 1904-yilda Xivalik yog‘och o‘ymakor

³ Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017.

usta Bog‘bek Abduraxmonov oilasida tavallud topdi. U dastlabki yog‘och o‘ymakorligi san‘ati sir-asrorlarini otasi B.Abduraxmonovdan, keyinchalik esa o‘sha davrning mashhuro‘ymakorligi ustasi Ota Paldvondan o‘rgandi. U ustozlari O.Polvonov hamkorligida ko‘plab yog‘och o‘ymakorligi ishlarini amalga oshirdi. Jumladan, Toshkentshahridagi Alisher Navoiy teatri va Urganch temir yo‘l vokzalida hamkorlikda ish olib bordi. S. Bog‘bekov 1970 yilda «O‘zbekiston» teploxodi ichki bezaklari uchun 8 turli namoyonlar, 1974 yili Urganchdagi «Inturist» mexmonxonasining tantanalar zali uchun 2 ta devoriy namoyonni an‘anaviy islamiy o‘yma naqsh san‘ati bilan bezadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бекмуродов М., Рашидов М. Музейшунослик. – Тошкент, 2006.
2. Орифжонова Г.Р. Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишининг тарихий-маданий жиҳатлари (Ўзбекистон музейлари коллекциялари мисолида). Монография. – Тошкент: «Lesson-press» нашриёти, 2021.
3. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017.
4. <https://khivamuseum.uz/uz/ichon-qala-haqida>
5. <https://khivamuseum.uz/uz/ichon-qala>